

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KADIROVA ZAYNAB BAKOYEVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI REKLAMA DISKURSINING
ANTROPOSENTRIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UDK: : 811. 111`367.635:811.512. 133`373.46

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Kadirova Zaynab Bakoyevna

Ingliz va o'zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari 3

Кадирова Зайнаб Бакаевна

Антропоцентрические особенности английского и узбекского рекламного дискурса..... 21

Kadirova Zaynab Bakayevna

Anthropocentric Characteristics of English and Uzbek Advertising Discourse 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KADIROVA ZAYNAB BAKOYEVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI REKLAMA DISKURSINING
ANTROPOSENTRIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil2255 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Toirova Guli Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Jo'rayeva Malohat Muhammadovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Safarov Shahriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 04 » may soat 09⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

394 Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 13 » aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil 13 » aprel daqi 24-03 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida insoniy faoliyat turi, lisoniy va nolisoniy omillarning mushtarakligida voqelanadigan diskurs va uning antroposentrik yondashuv zamiridagi ifodasi tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Xususan, reklama diskursi, uni yaratish mahorati, reklamaning o'ziga xos uslubi, uning qabul qiluvchilarga ta'siri, reklama matnni yaratish va idrok etish jarayonida insonning yetakchi rolini e'tirof etish, lisoniy shaxs omili, antroposentrik yondashuv hodisalarini o'rganish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa hozirgi zamon madaniyatida reklama eng ko'p tarqalgan matn turlaridan biriga aylangani bois, uning leksik-semantik, stilistik, grammatik xususiyatlarini, pragmatik-diskursiv voqelanishini, konseptual-kognitiv manzarasini antroposentrik paradigma nuqtai nazaridan ilmiy baholashga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida pragmatik, kognitiv lingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlar, antroposentrik yondashuv asosida reklama diskursining tahlili va talqini muammosi, uning yo'nalishi, ko'rinishi, namoyish joyi va yaratilish holati, reklama matnlarining lisoniy xususiyatlari, ular tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy shartlanishi, psixografik xususiyatlarning voqelanishi bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, zamonaviy reklama axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridagi tub o'zgarishlar natijasida namoyon bo'lgan reklama diskursining ingliz hamda o'zbek tillaridagi kategorial belgilari va maqomini qiyosiy tadqiq qilish, ularning matn strukturasi bajaradigan vazifalari orasidagi o'xshashlik va farqlarning aniqlash, reklamaga oid lingvistik birliklarning diskurs sharoitida namoyon bo'ladigan pragmatik, antroposentrik xususiyatlari bir-biridan yiroq bo'lgan ikki til, ingliz va o'zbek tillari misolida qiyoslab o'rganish va ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar natijasi o'laroq O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulot yorliqlarining matnini hamda tashqi yozuv, e'lonlar va boshqa ko'rgazmali axborot – reklama matnlarini davlat tilida mantiqli, tushunarli mazmunda va xatosiz shaklda aks ettirilishiga katta ahamiyat berilmoqda. "...jamoat joylari, ko'chalar, binolar peshtoqida, turli lavha va reklamalarning ko'pincha boshqa tillarda yoki mantiqsiz, tushunarsiz mazmunda va shaklda aks ettirilishi yosh avlod ongiga mentalitetimizga yot ma'naviy ta'sirlarning kirib kelish xavfini soladi"¹. Shu ma'noda tilimizning nufuzini dunyo miqyosida oshirish, reklama diskursining antroposentrik xususiyatlarini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. Манба: <https://lex.uz/docs/4742951>, <https://xabar.uz/jamiat/bosh-vazir-ozbek-tiliga>

farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish hora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yevropa tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida reklama matni va uning til xususiyatlarini o‘rganishga e‘tibor kuchaydi. Reklama ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar va ijtimoiy-madaniy xarakterdagi ma‘lumotlarni birlashtirgan ko‘p qirrali hodisa sifatida maqsadli tadqiqotlar roman-german tillari misolida J.Bignel, G.Kuk, X.Kulfen, G.Dayer, T.A.Deyk, A.Goddard, G.N.Luch kabi yirik olimlar tomonidan amalga oshirilgan².

So‘nggi yillarda rus tilshunos olimlari N.M.Maslova, Ye.V.Medvedeva, L.V.Lebedeva, D.E.Rozental va N.Koxtev, R.I.Mokshansev, O.O.Anderson, E.A.Terputovalar tomonidan reklamaning amaliy tomoniga bo‘lgan qiziqish bilan bir qatorda reklamaning nazariy jihatlariga, shu jumladan, lingvistika, psixologiya, sotsiologiya, psixo va sotsiolingvistika, semiotikalar, madaniyatshunoslik, san‘atshunoslik kabi fanlarga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda³.

O‘zbek tilshunosligida reklama matnining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, R.Karimov, F.Eshonjonova, B.Abdullayev, U.Mahmudova, D.Mamirova, D.Sobirova kabilarning ishlarida reklama matnlarining lisoniy xususiyatlari, ular tarjimasining

² Bignell J. Media Semiotics. – Manchester: Manchester University Press, 2002. – 241 p.; Cook G. The Discourse of Advertising.– London: Routledge, 2006. – 256 p.; Cölfen H. Werbeweltbilder im Wandel. Eine linguistische Untersuchung deutscher Werbeanzeigen im Zeitvergleich (1969 1990). – Frankfurt am Main.: Peter Lang, 1999. – 226 s.; Dyer G. Advertising as Communication.– London, New York: Methuen, 1982. – P. 154-175; Dijk T.A. van. Discourse and Communication. New Approaches to the Analysis of Mass Media Discourse and Communication. – Berlin, New York: Walter de Gruyter, 1985. – 367 s.; Goddard A. The language of advertising. Written Texts. // Intertext series / A.Beard and A.Goddard (ed.). – London, New York: Routledge Taylor & Francis Group, 2007. – 131 p.; Leech G.N. English in Advertising. A Linguistic Study of Advertising in Great Britain.– London: Longman, 1966. – 210 p.

³ Медведева Е.В. Основы рекламоведения. – М.: РИП-холдинг, 2004. – 266 с.; Маслова Н.М. Язык и стиль рекламы. – М.: МГУ, 1997. – 85 с.; Лебедева Л.В. Особенности функционирования языка в печатной рекламе. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1980; Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. Учебное пособие. –М.: Высшая школа, 1981. – 127 с.; Мокшанцев Р.И. Психология рекламы. Учеб. пособие– М.:Новосибирск: Сибирское соглашение, 2007. – 230 с.; Андерсон О.В. Лингвокультурологические и национально-ментальные особенности языка рекламы: дисс... канд.филол.наук. – Краснодар, 2006. Терпутова Е.А. Рекламный текст как особый тип императивного дискурса: автореф.дисс...канд.филол.наук.– Иркутск, 2000.

lingvomadaniy va uslubiy xususiyatlari o'z yechimini topgan⁴. Biroq hozirgi kungacha ingliz va o'zbek tillaridagi reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari yaxlit tarzda, monografik planda o'rganilmagan.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida nomlari sanalgan o'zbek va jahon tilshunoslarining tadqiqotlari chuqur o'rganildi, ularning qarashlariga munosabat bildirildi va tadqiqotda ingliz va o'zbek tillari reklama diskursining antropotsentrik xususiyatlari maxsus tadqiq qilindi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot rejalari muvofiq "Chet tilini o'rganishda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi reklama diskursi antropotsentrik xususiyatlarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tilidagi "reklama diskursi" tushunchasiga antropotsentrik yondashuvlarni tadqiq etish hamda ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash; reklama diskursining muloqot tizimidagi o'rnini belgilash, reklama matnlarining tasnifini o'rganish orqali lingvistik xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tilidagi reklama diskursi ta'sirining psixolingvistik hamda ijtimoiy-madaniy va stilistik xususiyatlarini aniqlash;

reklama diskursidagi muloqot ishtirokchilarining faoliyat beruvchi (retsepiyent) lingvokulturologik va milliy-etnik jihatdan reklama matni uchun asos bo'la olish imkoniyatini dalillash;

reklama diskursining asosiy vazifalari, uning elementlarini aniqlash orqali psixolingvistik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tilidagi yozma reklama matnlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tilidagi reklama matnlarining antropotsentrik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ratsional-tipologik, qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvopragmatik, konseptual-kognitiv, pragmatik-diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

zamonaviy ingliz va o'zbek reklama diskursining funktsional-pragmatik aspekti kontekstual-diskursiv, genetik-kul'turologik, ijtimoiy-tarixiy va lisoniy-

⁴ Каримов Р.Г. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материалида). Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Т., 2018. – 138 б.; Эшонжонова Ф. Реклама ҳақида тушунча ва унинг тарихи. Ўқув қўлланма. – Т., 2012. – 3 б.; Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. автореф. Андижон, 2020. – 65 б.; Маҳмудова У.У. Реклама матнлари таржимасининг лингвomadаний ва услубий жиҳатлари: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. Қарши, 2021. – 133 б.; Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социolingвистик тадқиқи: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. Самарқанд, 2021. – 159 б.; Sobirova D.R. Tibbiy reklama matnlarida psixografik xususiyatlarning voqelanishi // So'z san'ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2021. 4 jild. 4-son. – B. 250-255.

madaniy omillar ta'sirida adresatga axborot berish, targ'ib qilish va tarqatish, adresat ongiga ta'sir qilish/ishontirish/monipulyator kabi asosiy omillari antropotsentrik yondashuv negizida shakllanganligi asoslangan;

ingliz va o'zbek reklama diskursi lingvistik va ekstralingvistik xarakterdagi omillarni birlashtiradigan hamda ijobiy pragmatik yo'nalishni amalga oshiradigan muayyan tarkibiy elementlardan tashkil topgan tugallangan grafik matnli va semiotik birlik sifatida namoyon bo'lishi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillar reklama diskursining sintaktik munosabatlar asosini fonetik (alliteratsiya, assonans), morfologik (sintetik, analitik), sintaktik (konversiya, sintaktik adektivatsiya) vositalar tashkil qilishi hamda sotsiopragmatik (ijtimoiy, yosh, jins, kasb, milliy-madaniy) funksiyalari kogerentligini ta'minlashda keng tarqalgan nutq shakllari: anafora, metafora, metonimiya, epitet, giperbola, antiteza, frazeologik birliklar orqali voqelanishi aniqlangan;

reklama diskursining pragmatik o'zagi – kommunikativ intentsiya/illokutiv, eksplitsit yoki implitsit ifodalanishi, axborot tarkibida baholovchi va ifodalovchi so'zlariga ega bo'lishi/lokutiv, nutqiy ta'sir ko'rsatish/perlokutiv yaxlit bir butunlik sifatida nutqiy faoliyat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

reklama diskursi va uning xususiyatlari tahlil qilingan, reklama matnlarining tasnifi va funksiyalarini aniqlashda tayanadigan tamoyillar belgilangan, adresat nuqtai nazaridan reklama diskursining asosiy vazifalari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tilidagi reklama diskursi lingvistik jihatdan tasniflanib, reklama matnlarining o'xshash hamda farqli xususiyatlari umumlashtirilgan;

ingliz va o'zbek tilidagi "reklama diskursi" tushunchasiga antropotsentrik paradigma yondashuvlarning nazariy usullari dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida reklama diskursining lingvokulturologik hamda sotsiopragmalingvistik xususiyatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar ratsional-tipologik, qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvopragmatik, konseptual-kognitiv, pragmatik-diskursiv metodlari bilan asoslanganligi, nazariy qarashlar, shuningdek, xulosalarning amaliyotga tadbiiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tilidagi reklama matnlarini lingvistik jihatdan tasniflashda, tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatini psixolingvistik va ijtimoiy-madaniy jihatdan tahlil qilishda, soha tilshunosligi bilan daxldor masalalarni tadqiq etishga oid nazariy xulosalardan tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Soha tilshunosligi”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi”, “Lingvopoetika”, “Matn lingvistikasi”, “Stilistika va matn tahlili”, “Zamonaviy lingvistika” va “Lingvokulturologiya” fanlaridan mashg‘ulotlar olib borishda hamda o‘quv qo‘llanma, darslik, majmualar yaratishda, zamonaviy ingliz tili reklama matnlarida tilning o‘ziga xosligini o‘rganishda va lug‘at-ma’lumotnomalar tuzishda, tadqiqot natijalaridan ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari reklama diskursining antroposentrik jihatlarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

zamonaviy ingliz va o‘zbek reklama diskursining funksional-pragmatik aspekti kontekstual-diskursiv, genetik-kul`turologik, ijtimoiy-tarixiy va lisoniy-madaniy omillar ta'sirida shakllanganligiga oid nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022 yillarda bajarilgan A-OT-2019-10-raqamli “O‘zbek tilida neymning: me‘yoriy-huquqlarni yaratish asoslarini yaratish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 19-noyabrdagi №04/1-3195-son ma’lumotnomasi). Natijada reklama diskursi lingvistik jihatdan tasniflanib, reklama matnlarining o‘xshash hamda farqli xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek reklama diskursi lingvistik va ekstralingvistik xarakterdagi omillarni birlashtirgan hamda ijobiy pragmatik yo‘nalishni amalga oshiradigan muayyan tarkibiy elementlardan tashkil topgan tugallangan grafik matnli va semiotik birlik sifatida namoyon bo‘lishiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” innovatsion tadqiqot loyahasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 19-apreldagi №1017/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tili reklama diskursining antroposentrik, lingvokulturologik va sotsiopragmatolingvistik xususiyatlariga doir masalalarni mukammallashtirish imkoniyati yaratilgan;

reklama diskursining pragmatik o‘zagi – kommunikativ intentsiya/illokutiv, eksplitsit yoki implitsit ifodalanishi, axborot tarkibida baholovchi va ifodalovchi so‘zlariga ega bo‘lishi/lokutiv, nutqiy ta’sir ko‘rsatish/perlokutiv yaxlit bir butunlik sifatida nutqiy faoliyat kasb etishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Dolzarb mavzu”, “Intervyu plyus”, “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza” teleko‘rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 17-noyabrdagi 1/291-son ma’lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning kitobxonlikka qiziqishini oshirishda, telekompaniya ijodiy jamoasining sohaviy, keng omma tinglovchilarining lingvokulturologik bilimlari boyitilishiga, reklama

diskursining sotsiopragmalingvistik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar radiokanal ijodiy jamoasining mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritishi uchun zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va shartli qisqartmalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari, ilmiy faraz, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot metodlari, himoyaga olib chiqiladigan holatlar, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, ishning sinovdan o'tishi, natijalarning e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o'zbek tillarida reklama matnlarini antroposentrik yondoshuv asosida nazariy o'rganish”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Unda reklama matnlarining tasnifi, reklama matnlarining asosiy vazifalari, elementlari va uni germenektika sifatida talqin etilish usuli, reklama tushunchasi va mohiyatining nazariy jihati ochib berilgan, shuningdek, mavzuga oid nazariy-ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Bobning birinchi fasli *“Reklama tushunchasi va mohiyatini antroposentrik paradigmada o'rganish”* deb nomlanib, unda xorijiy, rus, o'zbek tilshunoslikda reklama tushunchasi va unga berilgan ta'riflar, uning turlari, maqsadiga ko'ra vazifalari, reklama matnlarini tartibga solish me'yorlari, reklama matni haqidagi nazariy-ilmiy tadqiqotlar hamda adabiyotlar tahlili keltirilgan.


Antroposentrik paradigma birinchi o'ringa inson omilini qo'yadi, til esa insonning asosiy xususiyati, uning eng muhim tarkibiy qismi sanaladi. Insonni tildan tashqarida, ya'ni reklama matni yaratish hamda qabul qilishning lingvistik qobiliyatidan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Inson tomonidan yaratilgan matn individualdir va shuning uchun egosentrik xarakterga ega. Har qanday so'z ortida insonning o'z hayotiy tajribasi, munosabati va madaniyati bilan ajralib turadi. Reklama matnlarining inson xohishi va faoliyati bilan bog'liq ekanligi ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo'lishi, inson nomida qadimiy davr reklamalarining madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topganligi,

umuman, reklama matnlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog'liq ekanligi ularni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish uchun asos bo'la oladi.

Reklama nutqning maxsus janri sifatida o'zbek va ingliz tillarida maxsus funksional va stilistik hodisalarning shakllanishida ham, ona tilida so'zlashuvchilarning ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan shaxs va dunyoning lingvistik ongini o'zgartirish tendensiyasida ham namoyon bo'ladi.

Reklama inson mafaatlarini ta'minlash uchun, avvalo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini, ya'ni insonning tabiiy, jismoniy, ruhiy, moddiy-iqtisodiy, huquqiy-mafkuraviy hamda ma'naviy talablarini yaxshilashga qaratiladi. Shuning uchun reklama matni yaratilayotganda, namoyish qilinadigan davlatning milliy madaniyati, mentaliteti, azaldan saqlanib kelayotgan qadriyatlari, dini hisobga olinishi zarur.

Lisoniy shaxs doim markazda bo'lgan reklama maqsadiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:



1-rasm. Reklamaning maqsadiga ko'ra tasnifi

Reklama xabarleri matnlarining turli xil reklama funksiyalariga mos keladigan bir necha turlari mavjud: axborot; eslatma; tavsiya etuvchi; ishonarli (ishontiruvchi). Axborot matnlari sodda va qisqa bo'lishi kerak.

Matnining hajmi va dalillash usullariga qarab, ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham bir xilda bosma reklama janrini ajratish mumkin:

– e'lonlar (qisqa axborot xabarleri): *The store buys Chinese porcelain and ancient figurines at high prices (Magazin qimmat narxda xitoy chinnisi, qadimiy haykalchalarni sotib oladi);*

– eslatmalar (ular reklamalardan uzunroq bo‘ladi): *Do you want to maintain your figure during the long winter and not blame yourself for the excess weight accumulated in the spring? For persistent active weight loss, choose Turboslim coffee instead of regular coffee, etc. (Uzoq qish davomida o‘z qomatingizni saqlash va bahorda to‘plangan ortiqcha vazn uchun o‘zingizni ayblamaslikni xohlaysizmi? Qat‘iyatlik bilan faol vazn yo‘qotish uchun oddiy qahva o‘rniga “Turboslim” qahvani tanlang va hokazo);*

– ko‘rsatmalar: *The use of a new drug... in complex treatment quickly eliminates inflammation and sore throat and contributes to the normalization of body temperature and the general improvement of the condition of acute and chronic diseases due to its detoxification effect... – a gift from the company! (Yangi doridan foydalanish... murakkab davolashda yallig‘lanish va tomoq og‘rig‘ini tezda bartaraf etadi hamda detoksifikatsion ta’siri tufayli tana haroratining normallashuvi va o‘tkir hamda surunkali kasalliklarning holatini umumiy yaxshilashga hissa qo‘shadi raqamiga bugunoq qo‘ng‘iroq qilganlarga... – firmadan sovg‘a!)* – matn potensial xaridorning harakatlarini tasvirlaydi: u bugun telefon orqali qo‘ng‘iroq qiladi, dorini sotib oladi, sovg‘a oladi);

– billboardli reklamaga xos bo‘lgan chaqiriq – adresatga tovarni sotib olishni “talab” qilish: *It’s your choice! (Bu sening tanloving!);*

– sharhlar (kitoblar, ko‘rgazmalar, filmlar va boshqalarni baholash);

– ilmiy-ommabop eslatmalar va maqolalar (ulara mahsulotning ixtiro kilinishi tarixi, uning ijobiy xususiyatlari haqida hikoya qilinadi; odatda, bunday matnlar “jiddiy” gazeta va jurnallarda chop etiladi hamda butun sahifani egallaydi).

Bobning ikkinchi fasli “*Reklama matnlarining tasnifi*” deb nomlanadi. Unda reklama matnining to‘rtta asosiy elementi, reklama matni bilan tadqiqotchi-olimlarning qarashlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi reklama matnining o‘ziga xos shablona, uning tamoyillari kabi masalalar yoritilgan.

Reklama matnlarini yaratish alohida sintaktik birlik va iboralarni birlashtirgan sintaktik tuzilmasiz amalga oshirilmaydi. Reklama matnini tuzishda tovushdan tortib matn tarkibiga kiruvchi til vositalarini tanlash o‘ta ahamiyatli bo‘ladi. Reklama matni to‘rtta asosiy elementni o‘z ichiga oladi. Ular sarlavha, sarlavha osti, asosiy matn, reklama shiori (shior).

Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham reklama matnlari o‘ziga xos shablona asoslanib quriladi. Reklama matnlarining asosiy elementlari:

– logotip – mahsulot ishlab chiqaruvchini ko‘rsatuvchi ramz;

– kompaniya yoki reklama kompaniyasining shiori: *Hayotning yorqin tomonida bo‘l!* (Beeline kompaniyasi);

– mahsulot reklamasini o‘z ichiga olgan asosiy matn;

– rekvizitlar – mahsulot ishlab chiqaruvchi (tarqatuvchi)ning manzili va telefon raqami.

Ingliz va o‘zbek tillardagi reklama matni sarlavhasi potensial xaridorning e’tiborini jalb qilishi va ularni reklama materialini o‘qishga undashi maqsadida quyidagi usullarda yaratiladi:

– pretsedentda matn parafrazalanadi: reklama maqolasining nomlanishida, Bochkadagi pivo! (pivoga bag‘ishlangan reklamada) reklama matnida Money in a barrel! degan ibora ishlatiladi;

– sarlavha qofiyali shaklda yoziladi: Summer without “Bouquet”;

– ichak kasalliklariga qarshi preparat haqidagi reklama matni sarlavhasida; Health for all. Holloway’s Pills. These pills purify the blood.

– til o‘yini vositalari ishlatiladi: “PIK” kompaniyasining billboarddagi reklamalarida kompaniyaning nomi ehtimoliy xaridorga chaqiriq bilan uyg‘unlashadi: Get Peak Apartments;

– sarlavha o‘quvchini qiziqtirishga mo‘ljallangan tugallanmagan gapni namoyon qiladi: Buni bilasizmi?!

– sarlavha savol shaklida yoziladi: Sochlaringiz tushib ketyaptimi? Qanday qilib tabiiy holda vazn yo‘qotish mumkin?

Bobning uchinchi fasli “*Reklama matnlarining asosiy vazifalari, elementlari va uni germenektika sifatida talqin etilish usuli*” deb nomlanib, unda inson ehtiyojlarining iyerarxiyasi, reklama matnlarini yaratishda germenektik usulni qo‘llash haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Reklamaning mohiyatida inson manfaatiga tegishli barcha xususiyatlar va inson ehtiyojlarining iyerarxiyasi mavjud bo‘ladi. Masalan: *Och qoldingmi? Bir pas dam ol va Twixni ye!* deb shokolad batonchigi reklamasi xitob qiladi. Dam olishdagi ehtiyojni qondirishga “Indezit” maishiy texnikasining reklamasi tayyorlangan: *Biz ishlaymiz – siz dam olasiz.* Qo‘riqlash korxonasiining reklamasi xavfsizlik sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan: *Sizning xavfsizligingiz uchun ziyrak nazar.*

Reklama matni – bu lingvistik va ekstralingvistik xarakterdagi omillarni birlashtirgan hamda ijobiy pragmatik yo‘nalishni amalga oshiradigan muayyan tarkibiy elementlardan tashkil topgan tugallangan grafik matnli va semiotik birlikdir. Uni tasniflashda quyidagi mezonlar asos qilib olingan: 1) reklama qilinadigan obyekt; 2) maqsadli auditoriya; 3) reklama joylashtiriladigan ommaviy axborot vositalari.

Dissertatsiyaning “**Reklama matnlarining til xususiyatlarini tahlil qilish**” deb nomlangan ikkinchi bob: “*Reklama matnlarning fonetik xususiyatlari va uning qusurlari*”, “*Reklama matnlarining morfologik xususiyatlarini tahlil qilish*”, “*Reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari tahlili*”, “*Reklamada qo‘llaniladigan til ushblari va reklama tilining uslubiy xususiyatlari*”, “*Reklama matnlarida me‘yorlarning buzilish holatlari*” deb nomlangan fasllardan iborat.

Reklama matnlarida ekspressivlik turli xil ovoqli takrorlashlar (alliteratsiya, assonans, anafora, epifora) tufayli yuzaga keladi va bu butun reklama xabarining intonatsiyasiga ta’sir qiladi. Masalan: 1) We cut, cut, cut ... (Spider and Life, 2007. No. 7. – P. 55); 2) Energy is only energy! (Youth Technology, 2003. No. 4. – P. 54).

Reklama matnlarining fonetik komponentini tahlil qilib, uning dissonansini va shunga mos ravishda iste'molchilar tomonidan yuzaga kelgan salbiy kinestetik assotsiatsiyalarni qayd etish mumkin.

O'zbek tilidagi reklama matnida tinish belgilari signal beruvchi vazifasini o'tashi mumkin, ya'ni tinglovchining diqqatini uning mazmuniga qaratish mumkin. Tinish belgilarining orasida tire, ayniqsa, keng tarqalgan. Shu bilan birga, uning qo'yilishi, odatda, urg'u berilgan reklama so'zining intonatsion va tasviriy jihatdan ajratib ko'rsatilishi bilan bog'liqdir: *Ma'danli suv – uni mamontlar ham ichgan; Yo'llar har xil – manzil esa bir*. Bunda ikki nuqta ikkiga ajraladigan tuzilmalar: birinchisi reklama predmeti, ikkinchisi esa aniqlashtiradi: *Vazifani qat'iy bajar: pulsiz kvartira – bu haqiqat*. Agarda reklama matnlarining oxirida va boshida undov belgisi ko'p qo'llanilsa, unda ifodaning tugallanganligi yoki fikrning kutilmagan holda burilishida ko'p nuqtadan foydalanishadi:

*Qishgi shinalar to'plami sovg'aga diskalar bilan. Faqat dekabr oyida!
40 yosh va birorta ham ajin yo'q...*

Reklama matnlari morfologik xususiyatlarga ham ega. Reklamaning samaradorligi ko'pincha fe'lning qaysi shakli va qaysi olmosh muayyan reklama matnida ishlatilayotganligiga bog'liqdir, chunki so'zlarning turli shakllari nafaqat mahsulotning o'zini reklama qilishga qaratilgan, balki ma'lum bir auditoriya turi uchun mo'ljallangan bo'ladi. Reklama matnlarida olmoshning quyidagi ko'rinishlarini kuzatishimiz mumkin:

Kishilik olmoshlari: 1. Bizning do'konimizda siz har doim sotib olishingiz mumkin (*maishiy texnika do'koni*); Sizningcha, xotiningiz siz kabi qiziqadimi? *Qaysi ayol mikroto'lqinli pechdan bosh tortadi?!* 2. *Qayerda edingiz?* Pivo ichdi (televideniye reklamasi); 3. Narxlarimiz mavjudligi *sizni* hayratda qoldiradi; 4. *Sizga* yoqadi; *Bizning* narxlarimiz (ayollar kiyimlari do'koni) mavjudligi *sizni* hayratda qoldiradi. 5. *Hamma* uchun mashinalar, mashinalar uchun *hamma* narsa.

Reklamaning asosiy maqsadi qabul qiluvchiga bevosita ta'sir o'tkazish bo'lganligi bois, reklama matnida barcha tillar uchun barobar yuqori darajadagi ifoda vositalaridan foydalaniladi. Xususan, sintaktik va morfosintaktik ifodalash vositalari ingliz tilidagi reklama xabarlarida keng tarqalgan. Bir bo'lakli gaplardan foydalanish reklama matnlarida tez-tez ishlatiladigan sintaktik ifoda vositasidir. Bir bo'lakli gaplar deb bitta bosh bo'lakdan iborat gaplarga aytiladi (faqat kesim yoki faqat egadan iborat). Masalan: "Chevrolet. An American Revolution" (Chevrolet avtomobilining reklamasi). "Creating a Higher Standard" (Cadillac avtomobillarining reklamasi). "The Power to Be Your Best" (Apple kompyuterlar reklamasi). "Real Tea Leaves & Antioxidants" (Lipton Iced Tea choyniing reklamasi). Gapning bunday bosh bo'laklaridan birining tushib qoldirilishi tanqidiy holat bo'lmay, aksincha reklama matnini ixcham qilib, uning eslab qolishini ta'minlaydi. Bir so'zli gaplar deb bitta so'zdan iborat gapga aytiladi. Masalan, Samsung firmasining mobil telefonlari reklamasi: "Ready. Set. Internet". Yoki ESTEE LAUDER kosmetikasining reklamasi: "Splendor. Opulence. Brilliance". Mazkur uslub, bir so'zli gaplardan foydalanish singari, reklama xabari matnini

qisqartirib, reklamani yanada ixcham va esda qolarli qiladi. Har qanday parallel qator boshida o'xshash tovush elementlarini, so'z yoki so'zlar guruhini takrorlash bilan bog'liq bo'lgan uslub bu anaforadir. Anafora o'zining barcha ko'rinishlarida reklama matnlarida, ayniqsa, reklama sarlavhalarida keng qo'llaniladi. Sababi, sarlavha doimo yaxshi esda qoladi, anaforadan foydalanish esa esda qolish jarayoniga yanada ko'proq hissa qo'shadi. Masalan: "Know music. Know the beat" ("CNN"dagi musiqiy yangiliklar reklamasi). "Maybe she's born with it. Maybe it's Maybelline" (Maybelline kosmetikasi uchun reklama). "How refreshing! How Heineken!" (Heineken pivosining reklamasi).

Epifora bir xil harflarni, so'z qismlarini, so'zlarni yoki iboralarni takrorlashga asoslangan. Epifora reklama sarlavhalarida anaforaga qaraganda kamroq ishlatiladi. Masalan: "Funny when this time comes around, the kids want to stay around" (IBM). "Be in Colin's. Be free" (Colin's kiyim-kechak reklamasi). Parallel tizimlar. Bir xil sintaktik tuzilishga ega bo'lgan qo'shni gaplar guruhiga parallel tizimlar deyiladi. "Take Toshiba, Take the World" (Toshiba). "Stop wishing. Start living" (Meltin' Pot jeans). "Looks ugly. Tastes great" (Stella Artois). Bunday uslub (yondashuv) reklamaga e'tiborni jalb qiladi va kuchaytiradi. Sukut. Nutqning bunday burilishi shundan iboratki, muallif o'z fikrini to'liq ifoda etmay, fikrining davomi borligiga shama qilish bilan cheklanadi. Bunday holda bosma reklamada qoida tariqasida bir necha nuqta qo'yiladi. Bayon qilinayotgan gapning bunday uzilishi hayajonni oshiradi va o'quvchining o'ziga aytilmay qolgan so'zlarni o'ylab ko'rishini taklif qiladi. Masalan: "Tylos tea ... it's a part of your life" (Tylos choyni reklamasi). "The best part of wakin' up ... is Folgers in your cup" (Folgers kofening reklamasi).

Reklama matnining eng muhim jihatlaridan biri fe'l birikmalarining mavjudligidir. X.Kaftandjiyev yozganidek, fe'l fikrlarga hayot, hayajon, kuch va quvvat qo'shadi. Ingliz tilidagi reklamada quyidagi fe'l birikmalari ko'p uchraydi: "Buy this", "Discover that", "Don't forget", "Try some today", "Treat yourself". Fe'lning buyruq shakli reklama matnining eng kuchli vositasidir. Uning yordami bilan haqiqiy xaridorni reklama qilingan mahsulotni sotib olishga da'vat etiladi. Haqiqiy ingliz tilidagi reklama matnlarini o'rganish quyidagi fe'llarni eng ko'p ishlatiladigan fe'llarga tegishli degan xulosa chiqarishga imkon beradi: Buy, feel, start, try, ask, discover, get, see, call, taste, watch, find, enjoy, listen, drive, smell, look, let drink, do. Masalan: "Buy the car. Own the road" (reklama Pontiac Grand Am). "Drive the new Paseo. Fall in love. Your future awaits down the road" (Toyota Paseo avtoullovining reklamasi). "Give your lips a double infusion of color" (Estee Louder lab bo'yog'ining reklamasi).

B.Abdullayev o'z tadqiqot ishida "O'zbek tilidagi reklama matnlarida sodda gap ko'rinishidagi predikatsiz yoki faqat predikatning o'zidan iborat jumlar ham uchraydi", – deya ta'kidlaydi. Jumladan: "Predikat yashirin tarzda yoziladi: – Dubay suxariklari. *Tez va mazali* (dir)! – Milagro choyi. *Xushbo'y va yengil* (dir)! Predikat tushirib qoldiriladi: Sale – 70 %gacha chegirma (bor)! – Skorpion – 1 dekabr dan yurtimiz kinoteatrlarida (namoyish etiladi)! To'liqsiz gap shaklida

yoziadi: – *Uz Study* o‘quv markazi – *Kelajakka “Uz Study” orqali...!*
Predikatning o‘zi yoziadi: – *Bilayn – Yetakchi. Ishonchli. Innovatsion; “Bliss” – Mazali. Foydali. Ajoyib.* Reklama matnida muhim kommunikativ-pragmatik funksiyalarni bajaradigan so‘roq va rag‘batlantiruvchi gaplar ham qo‘llaniladi. So‘roq gaplar iste‘molchini o‘ziga jalb qiladi, diqqatni jamlashga undaydi. *“Bliss” – sizning sevimli ta‘mingiz qanday? “Snickers” – ko‘proq araxis kerakmi? “Kredit market” – siz yaqinlaringiz uchun sovg‘ani tanladingizmi?*⁵.

Reklama matnini yaratishda muhim jihat uslubiy shakl qonunining qo‘llanilishi hisoblanadi. Umumiy til me‘yorlariga rioya qilish – reklama matnlariga qo‘yilgan yagona talab hisoblanadi. Reklama – muloqot shaklidir. Shuning uchun ham mavjud bo‘lgan aloqa normalari reklama materiallarining mazmuniga ham taalluqlidir. Reklama nafaqat tilimizga, balki axloqiy qadriyatlarimiz tizimi va dunyoqarashimizga ham ta‘sir qiladi. Reklamaning tili bu xabardor qilishi va ishontirishini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun u adabiy savodli, o‘ziga xos va maqsadli, mantiqan qurilgan, aniq, qisqa, kichik, namunalarga mos, qiziqarli, maroqli bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillarida reklama matnlarining lingvokulturologik, sotsiolingvistik va pragmalingvistik jihatleri”** deb nomlangan uchinchi bobi quyidagilar: *“Reklama tili uslubi va pragmatik xususiyatlari”*, *“Reklama tilining lingvokulturologik va sotsiopragmalingvistik xususiyatlari”*, *“Reklama matni ta‘sirining psixolingvistik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari”* kabi fasllardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning ushbu bobida reklama matnining informativ yoki tavsiflovchi; nazorat qiluvchi (boshqalar harakatini yo‘naltiruvchi) va hissiy; ular asardagi ma‘noning indikativ, irodaviy va effektiv elementlari, reklama matni ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik va boshqa omillar bilan birlashtirilgan matn ekanligi yoritilgan.

Reklamaning vazifalari: *1. Kommunikativ* - reklama yaratuvchi (beruvchi)lar va reklamani qabul qiluvchilarning o‘zaro ma‘lumot almashinishidir. U muloqotning bir ko‘rinishi. Reklamaga mahsulot yoki xizmat haqida ma‘lumot berish, targ‘ib qilish va tarqatish faoliyati sifatida qaraladi. Reklama – tovarlar va xizmatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotni majoziy, ekspressiv xarakterdagi matnlar orqali adresatga yetkazadi. U ommaviy aloqa shaklidir. *2. Interaktiv*- reklamada nafaqat bilim va g‘oyalar balki harakatlar bo‘yicha ham o‘zaro ta‘sirini tashkil etishdan iborat. Reklama xabarining tabiatida ommaviy yoki individual ongga psixologik jihatdan ta‘sir etish mavjuddir. U o‘quvchilar, tinglovchilar, tomoshabinlarga «adresat ongiga ta‘sir qiluvchi», «ularni ishontiruvchi», «monipulyator» vazifani bajaradi. *3. Pertseptiv* – reklama orqali o‘zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir. Axborotning tafakkurga oid xarakterlar (taxlil, sintez, qiyoslash, tasniflash) orqali soxta yoki yolg‘on, foydali yoki foydasiz kabi nozik tomonlarini tushuna bilishdir. Reklamaning bunday vazifasi axborotni anglash – tanib olish, identifikatsiya va boshqalarni ta‘minlaydi. Reklama mahsuloti juda ko‘p

⁵ Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт. Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. автореф. – Андижон, 2020. – 65 б.

takrorlanadi va inson ongining sintez qilish darajasi yuqori bo'ladi, natijada iste'molchida namoyish qilinayotgan voqelikka ko'nikma hosil bo'ladi. Bu jarayon reklamaning pertseptiv vazifasiga to'g'ri keladi. 4. Insoning *moddiy-iqtisodiy ehtiyojlari*ni «oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalar» qondirishga qaratilgan reklamalarda sotish-sotib olish xususiyati ustunlik qiladi. 5. Jamiyatning rivojlanib borishi natijasida yuzaga kelgan «bilim olish, malaka oshirish, dam olish, davolanish va boshqa xizmatlar» kabilarni insonning *ma'naviy ehtiyojlari* deb olinganda, reklama ishonish-ishotirish, da'vat etish xususiyati ustunlik qiladi. 6. Kishilarning yoshi, jinsi, millati, dini, bilim darajasi, kasb-kori, oilaviy ahvoliga, yashash muhitiga ko'ra bir-biridan farqlanuvchi individual (yakka), guruh (korporativ), hududiy, umumjamiyat (umummilliy) kabilarni o'zida mujassamlashtirgan *ijtimoiy ehtiyojga* qaratilgan reklamalarda ta'sir qilish xususiyati ustunlik qiladi.

